



## ISAJON SULTONNING “BILGA XOQON” ROMANIDA VATANPARVARLIK TALQINI

Urganch davlat universiteti talabasi

Madaminova Dilnura Bahodir qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Isajon Sultanning “Bilga xoqon” romanidagi vatanparvarlik, millat sharafi tuyg‘ularining ulug‘lanishi, shuningdek, Bilga xoqon, To‘nyuquq, Ishbara va boshqa Vatan erki uchun kurashgan obrazlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Vatanparvarlik, Vatan taqdiri, Bilga xoqon, Kul tigin, Ishbara, Bulut, Kunsuluv.

### THE INTERPRETATION OF PATRIOTISM IN THE NOVEL “BILGA KHAKON” BY ISAJAN SULTON

Abstract: In this article, Isajon Sultan's novel “Bilga Khagan” glorifies the feelings of patriotism, honor of the nation, as well as Bilga Khagan, Tonyuquq, Ishbara and other characters who fought for the Fatherland.

Key words: Patriotism, Destiny of the Motherland, Bilga Khagan, Kul Tigin, Ishbara, Bulut, Kunsuluv.

### ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПАТРИОТИЗМА В РОМАНЕ “БИЛЬГА КАГАН” ИСАДЖАНА СУЛТОН

Аннотация: В данной статье в романе Исаджона Султана “Бильга каган” воспеваются чувства патриотизма, честь нации, а также Бильга каган, Тоньюокук, Ишбара и другие персонажи, сражавшиеся за Отечество.

Ключевые слова: Патриотизм, Судьба Отечества, Бильга каган, Кул-тегин, Ишбара, Булут, Кунсулув.

O‘z yurtini sevish, unga sadoqat bilan xizmat qilish, uning taraqqiyoti, tinchligi va mustaqilligi yo‘lida jiism-u jonini safarbar etish, fidoyilik ko‘rsatib yashash – vatanparvarlikning asosiy tamoyillarini tashkil etadi. Vatanni haqiqiy vatanparvar insonlar



dunyoga tanitadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida ta’kidlaganidek: “Ta’limni rivojlantirishning hozirgi bosqichida yoshlarni tarbiyalash jarayonining muhim vazifalaridan biri bu talabalarda bebaho durdonalarimiz orqali vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish va rivojlantirishdir, chunki bu tuyg‘usiz chinakam barkamol insonni tarbiyalash haqida gapirish mumkin emas”.

Isajon Sulton adabiyotimizda o‘z o‘rni va uslubiga ega, bugunning peshqadam yozuvchilaridan sanaladi. Adib romanlari va hikoyalari allaqachon o‘quvchilar tomonidan iliq kutib olinib, o‘z bahosini olgan. Adib asarlarini o‘qir ekansiz, ularning tasvir markazidagi voqealar, obrazlarning ruhiy holati, ichki kechinmalari, milliy kolorit o‘ziga xos ekanligiga amin bo‘lasiz. Har bir davr insonning ma’naviy-ruhiy qiyofasining shakllanishi yoki o‘zgarishi uchun ta’sir qiladi. Qaysi davrda yashashimizdan qat’iy nazar, har bir inson Vatan taqdiri uchun javobgardir. Vatan tuprog‘i haqiqiy vatanparvar insonlar tufayli aziz va muqaddas bo‘ladi. Vatanparvarlik Vatan tuyg‘usini anglashdan boshlanadi. Bu o‘rinda, Isajon Sultonning “Bilga xoqon” romani katta ahamiyatga ega. Qachonki odam o‘z ona yurtining tashvishi, quvonchi bilan hamisha hamnafas yashasa, hatto Vatan uchun jonini fido qila olsa, vatanparvarlik shunchaki tuyg‘uga emas, yuksak insoniy fazilatga aylanadi. “Bilga xoqon” romani qahramonlari ham xuddi shunday, yuksak insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan, yosh avlodga namuna bo‘la oladigan, Vatan uchun jonini ayamaydigan, yurt taqdiriga befarq bo‘lmagan insonlardir.

“Ellik yil tabg‘achning zulmini chekkan turk bo‘duni uchun erk tushunchasi nihoyatda muqaddas ekanini Isajon romanning so‘nggi sahifalarida – turk qo‘smini tabg‘achlarni kunpayakun qilib mag‘lub qilish arafasida yaralanib jon berayotgan Bulutning Ishbara yamtar bilan qilgan quyidagi savol-javobida anglatadi:

- “— Ishbara! – dedi Bulut arang shivirlab.
- Biz yengdikmi?
- Yengdik, Bulut! Tabg‘achi enasini ko‘rsatdik!
- Ulus endi erklimi?
- Endi tugal erkli, Bulut!” [3]



Roman boshlangandan to oxirigacha kechgan voqealarda Ishbara yamtar, Bulut obrazlarida vatanparvarlikni ko‘rish mumkin. Isajon Sulton bu obrazlar orqali Vatanni qutqarib qolish yo‘lida er kishi hatto o‘limga ham tayyor ekanligini aytmoqchi bo‘ladi.

Romanda voqealari davomida Kultigin obrazi ham yetakchilik qiladi. Kultegin – Bilga xoqonning inisi, jasur, dovyurak va epchil:

“Kul Tiginning botirligi barchani jo‘shtirib yubordi. Shunday bo‘ldiki, Kul Tigin yovuq borsa, tabg‘ach qocha boshladи.”

“Inisi Kul tigin o‘t-olovday edi, o‘z oti tabg‘ach sanchqisidan ag‘anab pitirlab qolganida Ishbara yamatrning bo‘z otiga minib urishdi”

Roman qahramonlarining Vatan uchun kurashi kitobxonni bee’tibor qoldirmaydi, ayniqsa, ayollar, qizlarning ham urushga kirish tasvirini yozuvchi real, hech qanday mubolag‘asiz tasvirlashi, asarning badiiy-tarixiy qimmatini yanada oshirgan:

“Ishbara otini Kul tingga bergach, o‘zi yelkasidan o‘q yegan Yagan Siligning o‘qlarini oldi-da, uning to‘rig‘ini minib yana so‘qishga yuz Burgan edi, ortda bulutday bo‘lib ot choptirib kelayotgan budun xotinlariga ko‘zi tushdi.Ular orasida Kunsuluvning tanish qaddi ko‘zga tashlandi...”

Roman syujetida Kunsuluv obrazi ham ko‘p ko‘zga tashlanadi. Kunsuluv o‘z navbatida, go‘zal qiz bo‘lish bilan birga, mard va jasur obrazdir:

“Kunsuluv tugal o‘zgarib ketgan edi. Yuzi qizarib, otda qattiq o‘tirar, ko‘zlar arslon ko‘zlariday yonar, Ishbara hech ko‘rmagan o‘zg‘irlik chaqnardi.”

“ – Seni sevaman, Ishbara yamtar! – deb qichqirdi qiz, yoyiga boshqa o‘jni joylab, yana bir tabg‘achning yuziga urdi. O‘q tabg‘achning yuziga shunchalar chuqur kirdiki, o‘jni chiqarolmay yerga yotib tipirchilay ketdi.”

Bilga xoqon. Bu obraz vatanparvar, ismiga mos, dono xoqon. Bilga xoqon katta maqsadni – otasi Eltarish xoqon barpo qilgan Ikkinchি turk xoqonligini mustahkamlashni, bir-biriga dushmanlashgan turkiy qabilalarning boshini qovushtirishni ko‘zlagan edi. Romanning qaysi o‘rnida davlat va qabilalarni yakdil qilish manfaatlari turgan bo‘lsa, Bilga xoqon obrazi yetakchilik qiladi. Bilga xoqonning Vatan erki uchun kurashi, sarkardalik qobiliyati, davlat boshqaruvida adolatliliqi, atrofdagilarga munosabati romanning asosiy pafosini tashkil qiladi.



Xususan, Bilga xoqonning eliga murojaati tasvirlarida ham, uning qanday dono xoqon ekanligini ko‘rishimiz mumkin:

“ – Yuraging titramadimi, budunim? – deb so‘radi Bilga xoqon. – Buni eshitib tun uxlagim kelmadi, kunduz o‘tirgim kelmadi!..”

“ – Hoy, og‘a-inilarim, o‘g‘lonlarim ! Ezilgan, to‘zgan ulusim, budunim! O‘ngdag'i shad ila to‘g‘ri beklar, so‘ldagi tarqat buyruq beklar! Bu so‘zimni qamug‘ eshititing!”

“ – Bilib, qo‘y, hoy, budun! Kishi o‘g‘li o‘lgani tug‘ilarmish, Bir Tangri yashagay. Bu kun, yo‘qsa, erta baribir o‘lajaksan! Shunga deyman: qo‘rqma! Shoqoldayin ochlikdan o‘lma! Sillang qurib cho‘zilib yotma. O‘lsang boshingni tik tutib o‘l! Qolsang keksingni kerib-kerib yasha!”

“ – Unda olg‘a! – deb hayqirdi Bilga xoqon. Botir esang yarog‘ingni, yemishingni ol, yoyingni o‘qla! Otingni egarla!”

Bilga xoqonning to‘g‘ri qaror qabul qila olishi, sarkardalik qobiliyati quyidagi tasvirlarda o‘z ifodasini topgan:

“– Kul Tigin!

– Shu yerdaman, og‘am!

– Cherikni ol, quyiga qarab inaver. Qarshisiga chiqasan, yoyingni shay tutasan, biroq chopqinga kirmay turasan!

So‘ng qirmizi yalovni ko‘rsatib dedi:

– Qirmizi yalov ko‘tarilsa urasan, ungacha bitta o‘q chiqarmay tek turabergaysan.

– Ishbara!

– Shu yerdaman!

– Qoyalar ortiga bor, toshlarni yumalatishga shay qilib tur. Orada, tovush yetgulik yerda jarchi tursin. Men “Ur” deganimda jarchilar bir-biriga saslansin, ko‘k yalovni silkitishsin. Shunda quyiga tosh yumalatasan...”

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Vatan rivoji va yuksalishi biz yoshlari qoliga ishonib topshirilgan ekan bu ishonchni oqlashimiz, xuddi Isajon Sulton kabi millatimiz nomini butun jahonga baralla oshkor qilish bu har birimizning burchimizga aylanishi lozim. Ana shundagina ona yurtimizga munosib farzand bo‘lishga erishamiz.



Uning asarlarida hozirgi nasrimizda kechayotgan ijodiy izlanishlar o‘z ifodasini topmoqda. Bu holatni asarlarining mavzu va uslubiy-shakliy jihatdan rang-barangligida, epik bayonning ta’sirchanligi va qahramonlar ichki olamining teran tasvirida ko‘ramiz. Bu qahramonlar turli yosh va kasbga mansub bo‘lishsa ham ularning qismati Vatan taqdiri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, har birining o‘z qarashi, individual xususiyatlari, milliy koloritni aks ettiruvchi betakror jihatlari bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isajon Sulton nasri badiiyati. –Toshkent. “Turon zamin ziyo”, 2017, 380 b.
2. Isajon Sulton.”Bilga xoqon” roman, qissalar va hikoyalar. Toshkent: Factor books nashriyoti, 2022.
3. Nasimxon Rahmonov.Mangu bitik toshlar ilhomni. <https://uza.uz/posts/25169>.
4. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T. : A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T. : A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.